# HUDUDLARDA KAMBAG‘ALLIKNING OLDINI OLISHDA QISHLOQ XO‘JALIGI IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLAR

**A.Ch.Boboev.**

***Buxoro davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi mudiri, i.f.n., professor***

**S.Islomova.**

***“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi***

**Annotatsiya**: Maqolada Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va hududlarda kambag‘allikning oldini olishda ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish holati samaradorligiga bog‘liqligi, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i ekanligi, shuningdek qishloq joylarda tomorqa egalariga unumdor yerlar ajratilgani, sohada ishlab chiqarishni tashkil etish, qishloqlarda mulkdorlar sinfini vujudga keltirish, oxir oqibat mamlakatimiz hududlarida kambag‘allikning oldini olishda hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilishi o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Kambag‘allikning oldini olish, qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, bozor mexanizmlari, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, agrar siyosat, chorvachilik mahsulotlari, yer va suv resurslari.

**Аннотация:** В статье подчеркивается, что развитие экономики нового Узбекистана и предотвращение бедности в регионах во многом зависят от эффективности развития сельского хозяйства, что сельское хозяйство является важной отраслью экономики, а также от выделения плодородных земель домовладельцам в сельской местности, организации производства в отрасли, Показано, что создание класса собственников на селе в конечном итоге будет способствовать предотвращению бедности в регионах нашей страны и обеспечению устойчивого экономического развития.

**Ключевые слова:** Борьба с бедностью, сельское хозяйство, аграрная реформа, рыночные механизмы, сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, аграрная политика, продукция животноводства, земельные и водные ресурсы.

**Abstract:** The article emphasizes that the development of the economy of New Uzbekistan and the prevention of poverty in the regions largely depend on the effectiveness of the development of agriculture, that agriculture is an important sector of the economy, as well as the allocation of fertile land to household owners in rural areas, the organization of production in the sector, It has been shown that creating a class of owners in the villages will ultimately serve to prevent poverty in the regions of our country and ensure sustainable economic development.



ISSN 3030-3907

**Keywords:** Poverty alleviation, agriculture, agricultural reform, market mechanisms, agriculture, forestry and fisheries, agrarian policy, livestock products, land and water resources.

**Kirish**

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va hududlarda kambag‘allikning oldini olishda ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish holati samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Respublika aholisining 50 foiziga yaqini qishloq joylarda yashaydi, sanoat salohiyatining deyarli yarmi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan band.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib hisoblanadi. Respublika hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o‘tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, xo‘jalik yuritishning, yerga egalik va undan foydalanishning yangi shakllari mujassamlanishi, boshqarish tizimining bozor munosabatlariga moslashib borishi, ekinlar strukturasining bozor talabiga qarab takomillashtirilishi, mamlakat qishloq xo‘jaligidagi barqarorlikni ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi bo‘yicha katta salohiyatga ega.

2024 yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1454 573,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023 yilga nisbatan 6,5 % ga o‘sdi. Sanoat tarmog‘ining o‘sishi 6,8 % ni tashkil etib, YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining o‘sishi 3,1 % ni tashkil etdi va YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmining o‘sishi 8,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog‘ining YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘sish sur’ati 7,7 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 11,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 13,4 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 % ga o‘sdi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasining YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 3,3 f.p.ni tashkil qildi. Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,0 % ga o‘sdi va uning YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p.ni tashkil etdi.

Ma’lumki, yer va suv resurslari agrar sektorning asosiy ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. O‘zbekistonda yerlarning 72 foizi qishloq xo‘jaligida turli yo‘nalishda foydalaniladi hamda respublika suv limitining 86 foizi agrar sektorda ishlatiladi.



ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasida yer yuzasida sug‘oriladigan dehqonchilik hamda chorvachilikning eng qadimiy mintaqalardan hisoblandi. Uning qulay tabiiy sharoitiga muvofiq tarzda xalqimizning mehnat ko‘nikmasi tufayli O‘zbekiston paxta, pilla, qorako‘l terisi, mayiz, qovun va boshqa mahsulotlar yetishtirish bilan dunyoda o‘zining mavqeiga ega hisoblanadi.

Yaqin o‘tmishda mamlakat qishloq xo‘jaligi bir tomonlama rivojlantirilgan «O‘zbekiston - mamlakatning asosiy paxta bazasi» shiori amalda edi. Yerlarning teng yarmi sho‘rlanib ketganligi, agrotexnika tadbirlarining buzilganligi, aholini don va go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashdagi qiyinchiliklar paxta yakka - hokimligining asorati edi. Shuning uchun ham bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida qishloq xo‘jaligini isloh qilish nihoyatda murakkab kechdi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yilidanoq, paxta yakka- hokimligini bartaraf etishga kirishildi va «g‘alla mustaqilligi»ni ta’minlash maqsadida dastur ishlab chiqildi.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish va bozor munosabatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muhim huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi, tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlar ishlab chiqildi. Bu borada mamlakat qishloq xo‘jaligini tubdan isloh qilish bilan bog‘liq qonunlar qabul qilindi.

Qishloq joylarda tomorqa egalariga unumdor yerlar ajratib berildi. Ishlab chiqarishni tashkil etish, qishloqlarda mulkdorlar sinfini vujudga keltirishning mumkin bo‘lgan shakllaridan biri sifatida mulkiy paylarni joriy etish asosida qishloq xo‘jalik korxonalarini paychilar jamiyatiga aylantirish bo‘yicha ishlar olib borilgan. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining mutlaq ko‘p qismi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash maqsadida yangi texnika, o‘g‘it, yoqilg‘i va moylash materiallari yetkazib berishni yaxshilash bo‘yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, chet ellardan (AQSH, Germaniya) yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lgan paxta teradigan, g‘alla o‘radigan (Keys) kombaynlari keltirildi. Ularning ayrim turlari va ehtiyot qismlarini o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Respublikada olib borilayotgan agrar siyosat natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini sug‘urtalash, avanslash va to‘lov munosabatlari takomillashtirilib bormoqda.

Yangi agrar siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tufayli O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlarining o‘sish sur’atlari barcha MDH mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqoridir.


ISSN 3030-3907

2024 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 467041,5 mlrd. so‘mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 451019,6 mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi - 11 778,4 mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi - 4 243,5 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Shuningdek, ushbu yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 103,1 % ni, o‘rmon xo‘jaligi – 103,0 % ni, baliqchilik xo‘jaligi – 97,2 % ni tashkil qildi.

2024 yil hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Samarqand (57 452,0 mlrd so‘m), Andijon (46 494,9 mlrd so‘m) va Toshkent (44 379,0 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etilib, aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (15 926,3 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (17 970,7 mlrd so‘m) va Navoiy viloyatini (21 813,1 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Sezilarli darajadagi yuqori o‘sish sur’atlari Farg‘ona (104,8 %), Namangan (104,3 %), Qashqadaryo (104,2 %), Navoiy (103,9 %) viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (103,5 %) qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘sish sur’atlari Jizzax (101,2 %), Toshkent (101,4 %), Sirdaryo (101,6 %), Buxoro (102,7 %) va Samarqand (102,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

2024 yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 444 586,4 mlrd so‘mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 218 824,1 mlrd. so‘mni (102,2 %) chorvachilik mahsulotlari – 225 762,3 mlrd. so‘mni (104,0 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (55 225,4 mlrd so‘m), Andijon (44 374,9 mlrd so‘m) va Qashqadaryo (42 693,2 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (14 517,1 mlrd so‘m) Qoraqalpog‘iston Respublikasi (16 687,0 mlrd so‘m) va Navoiy viloyati (20 206,4 mlrd so‘m)ni keltirib o‘tish mumkin.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘sish sur’atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o‘sish sur’atlari Farg‘ona (104,8 %), Navoiy (104,6 %), Namangan (104,3 %), Qashqadaryo (104,2 %) viloyatlarida qayd etildi. Jizzax (101,1 %), Sirdaryo (101,4 %) va Toshkent (101,6 %) viloyatlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,7 % i fermer


ISSN 3030-3907

xo‘jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2024 yil yakuniga ko‘ra, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida (41,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining yuqori ulushi Navoiy viloyatida (72,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning yuqori ulushi Toshkent viloyatida (18,6 %) qayd etildi. Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha nisbatan past ko‘rsatkich Toshkent viloyatida (16,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (51,9 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Samarqand viloyatida (3,2 %) kuzatildi.

Shuningdek, ushbu yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8855,2 ming t. donli ekinlar (2023 yilga nisbatan 4,8 % ga ko‘p), 3 716,8 ming t. kartoshka (4,0 % ga ko‘p), 11994,8 ming t. sabzavotlar (3,8 % ga ko‘p), 2 683,6 ming t. poliz ekinlari (5,1 % ga ko‘p), 3 271,2 ming t. meva va rezavorlar (4,8 % ga ko‘p), 1 825,8 ming t. uzum (5,4 % ga ko‘p), hisobga olingan vaznda 2938,1 ming t .paxta (xom ashyosi) (20,8 % ga kam) yetishtirildi.

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qashqadaryo (11,7 %), Samarqand (11,4 %) va Toshkent (9,9 %) viloyatlariga to‘g‘ri keldi.

Albatta yuqorida keltirilgan ijobiy ko‘rsatkichlar hududlarda kambag‘allikning oldini olishda qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati borligini ko‘rsatib turibdi.

Bu esa, nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni g‘oyatda muhim ekanligini, balki bevosita sohada amalga oshiriladigan islohotlarga ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

O‘z navbatida aytish lozimki, so‘nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning melorativ holati buzilishi kabi muammolar sabab, O‘zbekistonda mazkur soha qator muammo va tahdidlar girdobida qoldi. Bundan tashqari, yillar davomida ushbu sohada to‘laqonli bozor munosabatlariga asoslangan islohotlarning amalga oshirilmaganligi, ya’ni ushbu soha davlat tomonidan eng ko‘p tartibga solinadigan soha bo‘lganligi, davlat buyurtmasi, yerdan foydalanishga bo‘lgan huquqlarning cheklanganligi va himoyalanmaganligi kabi muammolar ushbu tarmoqdagi samaradorlik, unumdorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘ldi.

Qishloqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha muayyan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlari


ISSN 3030-3907

hajmining o‘sishini ta’minlamoqda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida sifat o‘zgarishlarga olib keldi.

O‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko‘zda tutilgan bosh maqsad qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini, yer va mahsulotning haqiqiy egalarini shakllantirishdir. Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan dasturiy chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning jadal rivojlanish yo‘liga o‘tilishini, respublikaning oziq-ovqat xavfsizligini va oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlashi kerak. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmi, avvalambor, tashqi bozorda talab yuqori bo‘lgan qayta ishlangan mahsulotlar sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Harakatlar Strategiyasida belgilab berilgan qishloq xo‘jaligini strategik rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilayotganligini inobatga holda ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” bu borada qabul qilingan huquqiy hujjat sanaladi.

Strategiyaning asosiy maqsadi - ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirishga qaratildi. Strategiyada respublikamiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning to‘qqizta ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Ushbu ustuvor yo‘nalishlarda belgilab berilgan masalalarni izchillik bilan amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi va sohani rivojlantirish hamda tartibga solish uchun tegishli me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi va bunga doir dasturlar qabul qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mazkur sohada tegishli islohotlarni jadallashtirish, albatta kelgusida mamlakatimiz hududlarida kambag‘allikning oldini olishda hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vechkanov G.S. Sovremennaya ekonomicheskaya encyclopedia - St. Petersburg, - 2013, S. 880.
2. Drucker P. – The practice of management - M.: Williams, 2007. – P. 400


ISSN 3030-3907

3. Kaplan R., Norton D. System of balanced scorecard. From strategy into action - M. / Olymp-Business, 2008.,— B.320.
4. Taylor F.W. Reflections on the Relevance of the Principles of Scientific Management 100 Years Later - Journal of Business and Management – Vol. 17, No. 1, 2011. – P. 104.
5. OECD, Glossary of statistical terms: Effectiveness - https://stats.oecd.org/glossary/detail.asp?ID=4775
6. What are Key Performance Indicators? https://the9000store.com/articles/iso-9001-key-performance-indicators/
7. Vyashnikova M.V., Myths and truth about KPI - M. / ISBN 978-5-4493-2111-4 / 2017, p. 274.
8. Klochkov A.K., KPI and staff motivation. A complete collection of practical tools, - M. / Eksmo / ISBN 978-5-699-37901-9 / 2010, p. 160.
9. Бобоев, А. Ч., & Рахматов, Ш. А. (2016). Эволюция теоретических взглядов о предпринимательской деятельности. Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире, (13-2), 94-98.


ISSN 3030-3907